

O'ZBEKISTONDA PROKURATURA ORGANLARI TASHKIL TOPISHINING TARIXIY ZARURIYATI

Dexkanova Maftuna Shavkatovna

Toshkent viloyati yuridi texnikumi o'quvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8278291>

Annotatsiya: prokuratura organlari tushunchasi va uning tarixiy jihatdan shakllanish asoslari atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: prokuratura, ogohlantirish, qoralash, jismoniy jazo.

Prokuratura deganda nazoratni amalga oshiruvchi davlat organini yoki bunga vakolat berilgan mansabdor shaxslar faoliyat olib boruvchi maxsus idorani tushunamiz. Lotin tilida "procuratio (procuro)" so'zi g'amxo'rlik qilish, boshqarish, "procurator (procuro)" so'zi boshqaruvchi, idora qiluvchi, rais, ishonchli vakil, vakolatli, prokurator, imperator daromadlarini boshqaruvchi va nihoyat "procuro" so'zi esa g'amxo'rlik qilmoq, parvarishlamoq, asrab-avaylamoq, ta'minlamoq, sodir etmoq, boshqarmoq, boshlab bormoq degan ma'noni anglatadi[1]. Lug'aviy ma'nosining o'zi ham prokuraturaning nazoratni amalga oshiruvchi, jamiyatning har bir a'zosiga va davlatning qonun hujjatlariga g'amxo'rlik qilishini, ularning manfaatlarini har qanday tajovuzlardan himoya qilishini bildirmoqda. Albatta, prokuratura nazoratni amalga oshirish, huquqlarni himoya qilish jarayonida aniqlangan qoidabuzarliklar yuzasidan choralar ko'rish huquqiga ega bo'lishi lozim. Prokuratura bunday vakolatga ega bo'lmasdan turib o'ziga yuklatilgan bunday keng ko'lamdagi vazifalarni ado qila olmaydi.

Davlatimiz tarixida prokuratura institutining vujudga kelish zaruriyatlarini aniqlash uchun tarixga nazar solamiz. Yurtimiz tarixida Islom dini alohida mavqega ega bo'lib, davlat boshqaruvi qonun-qoidalari shariat hukmlari asosida olib borilgan. Bugungi kundagi prokuratura institutining o'z davriga xos va mos bo'lgan, shariat ahkomlari asosida faoliyat yurituvchi, funksiyalari jihatidan bugungi prokuraturaga o'xshash va yaqin bo'lgan, ya'ni shariatda belgilangan qoidalarga rioya qilinishini nazorat qilib boruvchi lavozim mavjud bo'lib, u "Muhtasib" lavozimi edi. Ushbu lavozim Islom dini bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Muhtasiblikning vujudga kelish tarixi haqida qarashlar turlichadir. Ayrim olimlar muhtasib lavozimi Arabiston yarim orolida payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hayotlik chog'laridayoq vujudga kelgan va bevosita ularning hayotlari bilan bog'liq deb biladilar. Bir kuni payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) Madina shahridagi bozorda chiroyli bug'doy sotayotgan odamning oldiga kelib, bug'doy solingan xaltaning ichkarirog'iga qo'llarini solib bir hovuch chirigan bug'doyni olib chiqib bu nima deb sotuvchidan so'raydilar. Shunda sotuvchi bu yomg'ir tufayli shunday holga kelgan deb javob beradi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) nega eng yaxshilarini tashqi tomonga, yomonlarini esa ichkari tomoniga qo'yganligini so'raydilar va qo'shimcha qilib, musulmonlar orasida hiyla-nayrang bo'lmasligi kerakligini hamda kim aldasa, u musulmon emasligini aytadilar. Ushbu voqeadan keyin Madina bozoriga nozir biriktirib qo'yadilar. Makka fathidan keyin esa Sayyid bin Os bin Umayni bu shaharga muhtasib ya'ni nazoratchi qilib tayinladilar[2]. Shundan bilib olamizki, muhtasib lavozimining asosiy vazifasi jamiyat a'zolari orasida shariat hukmlariga amal qilinishini, belgilangan qoidalarga rioya qilinishini nazorat qilish bo'lgan. Shunday ekan, musulmon huquqida fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlash uchun joriy qilingan qonun-qoidalarning

bajarilishi ustidan nazorat olib borish dastlab savdogarlarning faoliyatini nazorat qilish sifatida paydo bo'lgan deb hisoblaymiz.

Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra esa, muhtasiblik faoliyati xalifa Umar ibn Xattob (r.a.) davrida davlat boshqaruviga olib kirilgan deb hisoblanadi. Keyingi vaqtlarda Abbosiylardan xalifa Mahdi (775-785) hukmronligi davrida ularning vakolatlari yanada kengaydi[3].

Muhtasiblikning vujudga kelishi to'g'risidagi qarashlarning qay biri to'g'riligi unchalik katta ahamiyat kasb qilmaydi, muhimi o'sha davrlarda nazorat qiluvchi institutning joriy qilinishi edi.

O'rta Osiyo xonliklari (Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari)da muhtasib (rais) lavozimida ishlagan shaxslar xalq orasida yurib, jamiyatdagi kundalik holatdan xabardor bo'lib turganlar. O'zlari uchratgan noqonuniy voqelikni joyida tugatish choralarini ko'rganlar. Ular umumiy nazorat ya'ni sog'liqni saqlash, jamoatda sodir qilinishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarning oldini olish, atrof-muhitning tozaligiga, ozodaligiga rioya qilinishini ta'minlash va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish kabi vazifalarni bajarganlar. Bundan tashqari ularning vazifalariga zaif va faqirlarni himoya qilish hamda o'jizlarning huquqlari poymol qilinmasligini ta'minlash ham kirgan. Fikrimizcha, aynan mana shu vazifa va funksiyalarining o'xshashligi ularni bugungi kundagi prokuratura institutining "qondosh birodari" bo'lgan deb hisoblashimizga asos bo'ladi.

Muhtasib (rais)lar tomonidan huquqbuzarliklar uchun qo'llaniladigan jazo choralarini "axloq tuzatish" ishlari toifasiga kiritilgan. Ushbu toifadagi jazo choralarini to'rt guruhga ajratishimiz mumkin:

1. Ogohlantirish va qoralash;
2. Jismoniy jazo;
3. Tashxir (eshakda shahar ko'chalari bo'ylab olib yurish);
4. Jarima.

Yuridik fanlar doktori G. Malikovanning ta'kidlashicha, hozirgi prokuratura institutining funksiyalari bilan muhtasiblik nazorati institutini taqqoslash xato[4] sanaladi. Tarixni o'rganish, ajdodlarimizning asarlariga murojaat qilish va ularning tarixiy tajribasi shuni isbotlaydiki, bugungi tizimimizning ilk ko'rinishi yuqorida aytib o'tilgan davrlarda paydo bo'lgan. Muhtasib (rais)lar o'z faoliyatini qozilar va mirshablar bilan birgalikda olib borgan va bu qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat funksiyasining mavjudligini tasdiqlaydi. Keyinchalik esa bu Turkiston o'lkasida vujudga kelgan prokurorlik lavozimining asosiy funksiyasiga aylanadi. Shuni ham eslatib o'tish joizki, G. Malikova muhtasib instituti Buxoroda o'rta asrlardagi shaklida to 1920-yilgacha saqlanib qolganligini aytib o'tadi.

Prokuratura institutining vujudga kelish tarixi Yevropadan boshlangan bo'lib, birinchi prokuratura organlari XIV asrda Fransiyada tuzilgan. Bu davrdagi prokuratura birinchi navbatda jazolash, ayblash choralarini amalga oshirish uchun tashkil qilingan edi. Fransiyadagi prokuratura faoliyati Chor Rossiyasidagi prokuraturaning tashkil topishiga asos bo'ldi va 1917-yil oktabr revolyutsiyasidan keyin hamda sobiq Ittifoq davrida prokuratura organlarining ishlashi va shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi. Rossiyada prokuratura qonunga amal qilish ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organ sifatida davlat boshqaruvini isloh qilish davrida Pyotr I tomonidan tuzilgan edi[5].

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, O'zbekistonga prokuratura instituti Chor Rossiyasi va sobiq Ittifoq davlatining ta'siri ostida kirib kelgan. Ammo yuqorida aytib

o'tganimizdek, yurtimizga prokuratura tizimi kirib kelishidan oldin o'rnatilgan qoidalarga rioya qilinishini, shariatga amal qilinishini nazorat qiluvchi boshqa davlat amaldorlari ham mavjud edi.

Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan xonliklar hududlarida sekin-astalik bilan prokuratura instituti shakllantirila boshlandi. Bu institutga prokurorlar rahbarlik qilib, mazkur lavozimga xristian dinida bo'lgan ruslarga tayinlangan. Prokuror lavozimiga tayinlash va uni ishdan olish faqatgina podshoning ixtiyorida bo'lib, bu prokuratura organlari reaksion ruhdagi davlatning manfaatlarini himoya qilish bilan shug'ullanuvchi, jazolash ishlarini amalga oshiruvchi organ bo'lgan va 1917-yilgacha saqlanib, Chor Rossiyasi bilan birgalikda tugatilgan. Uning faoliyati qariyb to'rt yil tiklanmagan. Sobiq Ittifoq davlatining tarixiy tajribasidan shuni bilamizki, qonunchilik ustidan nazorat qilish uchun alohida mexanizm ya'ni mustaqil tizim bo'lgan prokuraturaning tashkil etilishi lozim ekan.

Prokuratura tugatilgandan keyin har bir tarmoqni boshqarishda tashkil etilgan alohida nazorat qonuniylikni ta'minlash uchun yetarli kafolatlarni yaratmadi, chunki u idoraviy tashkilot edi. Uyezd ijroiya qo'mitalari va viloyat ijroiya qo'mitalarining adliya bo'limlariga yuklatilgan qonunchilikka rioya qilinishi ustidan nazorat ham unchalik darajada samarali emasdi. Shu sababli davlat oldida qonunlarning aniq ijro qilinishi ustidan nazorat qilishni takomillashtirish vazifasi paydo bo'ldi, chunki shu kungacha amal qilgan qonuniylikni ta'minlash tizimi o'zini oqlamadi, u qonuniylik uchun olib borilayotgan maqsadli kurashni ta'minlay olmadi. Qonuniylikni amalga oshiruvchi markaziy hokimiyat nomidan harakat qiluvchi yagona uslubga ega bo'lgan va mahalliy hokimiyatga bo'ysunmaydigan maxsus tashkilotni tashkil etish zarurati paydo bo'ldi[6]. Ushbu maxsus tashkilot esa prokuratura organlari bo'lib, uning tashkil topishiga bo'lgan ehtiyoj shu tariqa yuzaga kelgan. Shunday bo'lsa ham bu davrlarda prokuratura organlari yagona markazlashgan tizim sifatida shakllanmagan edi. Bunga sabab esa 1917-yildagi oktabr inqilobidan so'ng Turkiston o'lkasida yagona markazlashgan davlat shakllanmaganligi edi, ya'ni davlat tuzilishi Turkiston avtonom sovet respublikasi, Buxoro xalq sovet respublikasi va Xorazm xalq sovet respublikasi sifatida shakllangandi.

Prokuraturaning tashkil etilishi Turkistonda davlat boshqaruvi sohasining yangi va sifatli bo'lgan funksiyasi paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu organga umumiy nazorat qilishdan tashqari yana o'z irodasiga ko'ra yoki berilgan ariza va shikoyatga asosanib mansabdor shaxslarga nisbatan sud qilish uchun ta'qib va ularni ushlash kabi vakolatlar ham berildi.

Ma'lumki, ilgari O'zbekiston ittifoqdosh respublika sifatida sobiq Ittifoqdan qonunchilik tizimini, shu jumladan prokuratura organlari faoliyati va tashkil etilishining asosiy prinsiplarini ham qabul qilib olgan edi.

1936-yil 20-iyunda SSSR Markaziy ijroiya qo'mitasining SSSR Adliya xalq komissariatini shakllantirish to'g'risidagi qarori qabul qilingan bo'lib, mazkur qaror bilan O'zbekiston SSRning, shu jumladan, ittifoqdosh va avtonom respublikalarning prokuratura va tergov organlari Adliya xalq komissariati tizimi bo'ysunuvidan chiqarib olinib, SSSR prokuroriga bevosita bo'ysunadigan qilib qo'yildi.

Shunday qilib, 1936-yilga kelganda prokuratura institutini markazlashtirish va yagona tizimga aylantirish jarayoni o'z nihoyasiga yetdi.

O'zbekistonda prokuratura organlari faoliyati ana shu tariqa vujudga kelgan va tizimlashtirilgan bo'lib, ushbu davlat organi tashkil etilgan dastlabki davrlarda asosan

davlatning jazolovchi “qamchi”si vazifasini bajargan. Buning natijasida barcha sobiq Ittifoq respublikalari fuqarolari ongida prokuratura organlari qonuniylikni ta’minlovchi bo’lgan qonun himoyachisi sifatida emas balki, davlatning majburlov kuchini ko’rsatuvchi, buyruqlarga va ko’rsatmalarga bo’ysunmaganlarni yoki ularni bajarish jarayonida xato va kamchiliklarga yo’l qo’yganlarni ayovsiz jazolovchi organ sifatida gavdalandi.

Sobiq Ittifoqning qariyb 80 yillik faoliyati mobaynida prokuratura organlari inson huquqlari va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilishga emas, aksincha, sotsialistik tuzumni, kommunistik g’oyalarni va davlat bilan fuqarolar o’rtasidagi munosabatlarda davlatning manfaatlarini himoya qilishga intildilar. Inson va fuqaro huquqlari himoyasi va qonunlarning ijrosi ustidan nazorat qilishi kerak bo’lgan asosiy organ ana shu intilishlari bilan o’zlari tomonidan ko’plab qonun buzilishi, fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini poymol qilinishi holatlariga yo’l qo’yilgan. Sobiq Ittifoq tarqalib ketgach esa har bir ajralib chiqqan respublika tarkibida Bosh prokuror rahbarlik qiladigan prokuratura organlari tashkil topdi.

1992-yil 8-yanvarda birinchi prezidentimiz Islom Karimovning PF-313 sonli Farmoniga asosan Ittifoq qaramog’idagi O’zbekiston SSR prokuraturasi O’zbekiston Respublikasi prokuraturasiga aylantirildi. Ushbu farmon bilan mustaqil O’zbekistonda prokuratura yangicha g’oyalar asosida, o’zgacha ruh bilan o’z faoliyatini yo’lga qo’ydi. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning ertasi kuniyoq, ya’ni 1992-yil 9-dekabrda “Prokuratura to’g’risida”gi qonun qabul qilindi. Unda O’zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi belgilab qo’yildi. Bunday ketma-ketlik ham o’z-o’zidan sodir bo’lmadi. Konstitutsiyamiz qabul qilinishi bilan jamiyat taraqqiyotining va huquqiy demokratik davlat qurilishining qonuniy majmuasi yaratildi.

Ya’ni uning asosida yosh, suveren respublikaning qonunlari yaratila boshlandi. Bundan kelib chiqadiki, ushbu qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishini nazorat qilish tizimi zarur edi. Natijada, prokuratura organlari demokratik huquqiy davlat poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladigan, adolat va qonuniylikni ta’minlovchi maxsus organ sifatida tashkil qilindi. Bu qonun prokuraturaning faoliyatini inson va fuqarolar huquqlarini himoya qilishga qaratib, davlat va jamiyat hayotida qonuniylikni ta’minlash kabi vazifalarni belgilab bergan va prokuratura organlarini isloh qilgan qonun bo’ldi. 2001-yil 29-avgustda “Prokuratura to’g’risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilinib, unda prokuraturaning vakolatlari, faoliyatining asosiy yo’nalishlari va prinsiplari ham belgilandi. O’z navbatida, yangi tahrirdagi qonun zamon talablaridan kelib chiqib prokuraturaning vazifalarini aniqlashtirib bergan edi.

References:

1. Современный словарь иностранных слов. – М., 1993. – С. 493. Большой юридический словарь. – М., 1999. – С. 821, 822.
2. Сокит М. Н. Институты правосудия в исламе. Тегеран, 1325 г. х. С. 300; Буриев И. Б. Контроль за должным поведением и институт мухтасиба в средневековой государственности таджиков // Труды Института государства и права Российской академии наук. 2009. № 4. С. 141
3. Раджабов К., Кандов Б. Жаҳон тарихидаги сулола ва давлатлар. Ташкент, 2015. С. 102
4. Маликова Гульчехра Рихсходжаевна ГЕНЕЗИС ПРОКУРАТУРЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: "ВОСТОК - ДЕЛО ТОНКОЕ" // Журнал зарубежного законодательства и

сравнительного правоведения. 2020. №4 ст.85. URL:
<https://cyberleninka.ru/article/n/genezis-prokuratury-respubliki-uzbekistan-vostok-delo-tonkoe> (дата обращения: 07.04.2021).

5. Prokuror nazorati / D.Y. Xabibullayev, F.B. Ibratova va b. – Toshkent: TDYU, 2019. 10-11 b.

6. О.М. Мадалиев Прокурор назорати. Дарслик. Умумий қисм. – Т.:ТДЮИ нашриёти, 2009. 76 б.



INNOVATIVE
ACADEMY